

ESHITISH KO'NIKMASINI O'ZLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Sultonmurodova Nigina Kobilovna

Samarqand Davlat Chet tillari instituti Ingliz II fakulteti

Ilmiy rahbar: Махмудова Гулбахор Бахром кизи

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-kurs 2230-guruh talabasi

e-mail: niginakobilovna04@gmail.com

ANNOTATSIYA Har qanday xorijiy tilni o'rganish mobaynida har qanday inson qiyinchiliklarga yo'liqishi tabiiy holdir albatta. Bundan hech bir inson o'zini kam harakat qilayotgandek tutmasligi va o'zini ojizdek his qilmasligi lozim. Tilning o'z ko'nikmalari mavjud bo'lib, ularni biz 4 qismga ajratganmiz. Eshitish, gapirish, yozish va o'qish. Bu ko'nikmalar xorijiy tilni o'rganishdagi asosiy mahoratlar hisoblanib, til o'rganuvchi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Eshitish ko'nikmasidagi dolzarb bo'lgan muammolar, ularga yechim, eshitish ko'nikmasini shakllantirishdagi ayrim amaliy ishlar haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muammo, bolalar, o'quvchi, salohiyat, ta'lim, o'qituvchi, me'yor, o'rganish, eshitish.

ABSTRACT. It is natural for any person to face difficulties while learning any foreign language. Because of this, no person should act as if he is doing less and should not feel that he is weak. The language has its own skills, which we have divided into 4 parts. listening, speaking, writing and reading. These skills are considered the main skills in learning a foreign language and serve as a basis for a language learner. Information about actual problems in listening skills, solutions to them, and some practical work in the formation of listening skills is also provided.

Key words: problem, children, student, potential, education, teacher, standard, learning, listening

Ko'plab til o'rganuvchilar har doim o'zlarida har xil qiyinchiliklarni his

qilishadi. Ya'ni ular to'g'ri talaffuz qilishda, grammatik qoidalardan to'g'ri foydalanishda, to'g'ri eshitish yoki to'g'ri gapirishda va hakazo. Bularning barchasi tabiiy holdir. Ammo ba'zi bir insonlar buni kamchilikdek his qilishadi. Ularning nazarida hozirgi harakatlari ularning bilimlarini oshirishda "yetarli emas" deb o'ylashadi. Ammo bu xato fikrdir. Kimdadir eshitish va o'qish orqali o'rganish ko'nikmasi shakllangan bo'lsa, kimdadir bu mahoratlar yaxshi rivojlanmagan. Har doim ham miyamizni majburlashimiz evaziga yaxshi natijalarga erishavermaymiz. Eshitish ko'nikmasida kamchiligi bor odamlar eshitadi-yu ammo tahlil qila olmasligi, so'zlarni tarjima qila olmasligi, so'zni to'g'ri anglay olmasligi va diqqatini jamlay olmasliklaridan shikoyat qilishadi. Ular o'zidan yuqori natijaga erishgan insonlardan ko'plab mashg'ulotlarni o'rganishadi va o'zlarini ushbu mashg'ulotlarni bajarishga majburlashadi. Ammo ko'plab insonlar o'zlari kutgan natijaga erisha olishmaydi. Bunga asosiy sabab bu o'zlarini yetarli darajada qiziqtirmasliklaridir.

Har bir muammoning yechimi bo'lgani kabi buning ham o'z yechimi bor. Hozirgi kunda podcastlarni eshitib, ularni tahlil qilish, musiqalarni eshitib ularni tarjima qilish, yozma bayoni bo'lmagan video rolik yoki kino filmlar ko'rish va shu kabi samarali usullardan foydalanish zarur. Ammo buning o'zi yetarli boladi deb o'ylamayman. Eshitish ko'nikmasini shakllantirish uchun avvalo inson tilni nima uchun o'rganayapti- shuni tahlil qilib olishi zarur. Kimdir sertifikat uchun, kimdir til o'rganish uchun, yana kimdir esa boshqa bir sabab uchun o'rganishi mumkin, ammo hech kim qiziqqani uchun o'rgangan inson kabi o'rgana olmaydi. Eshitish ko'nikmasida – eshitib tushuna olish zarur bo'ladi. Bunda ham tinch joy ham diqqatning bir joyda bo'lishi talab etiladi. Har qanday o'ziniki bo'lmagan tilni o'rganishda muhitning roli kattadir. Atrof muhitni aynan o'rganmoqchi bo'lgan tilning muhitiga aylantirishi zarur bo'ladi. Eshitish ko'nikmasi baribir miyamizning qabul qilishiga bog'liqdir. Agar miyamizda jismoniy kasalligimiz bo'lmasa, qolgan muammolarni yechimini ustida ishlasak bo'ladi.

Xulosa shuki, ko'plab til o'rganuchilar nazaridan chetda qoladigan bir narsa bor. Yani tushkunlik holati. Depressiya nafaqat eshitish ko'nikmasini, balki o'qish

malakasini ham salbiy tarafga burib yuborishga qodirdir. Ayni shu paytda ongimiz chuqur o'ychan va muammomiz bilan band bo'ladi. Bu paytda biz dars qiladigan bo'lsak, miyamizga kuchli bosim ortadi va bosh og'rig'i kelib chiqishi yoki har doimgidan ham qoniqarsiz tushunishimiz mumkin. Shu sababli, avvalo ruhiyatimiz va jismimizni tilni boricha qabul qilishga o'rgatib borishimiz zarurdir. Eshitish ko'nikmasi gapirish ko'nikmasi bilan uzviy og'liqligi borligini hisobga oladigan bo'lsak, doimo diqqat e'tiborimizni tilni o'rganishga ahamiyat berishimiz kerak bo'ladi. Qachonki biz til o'rganishni qiziqarli mashg'ulotga aylantirsakgina, ko'plab yutuqlarga erishishimmi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ELEKTRON MANBAALAR

1. <https://wikipedia.uz>
2. <http://www.e-library.tsuos.uz/>
3. <http://www.fledu.uz/>
4. <https://cyberleninka.ru/>
5. <https://forumdaily.com>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Makhmudova G.B.** The Development of Scientific Theories of Metaphor Translation from the Cultural Point of View//International Journal on Integrated Education 6 (5), 329-332